# ILK O'RTA ASR SAN'ATI (IV-IX)

https://doi.org/10.5281/zenodo.20142023

**Hikmatilla Gadayev**
*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi*
*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros*
*ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar san'ati xaqida yoritilganShuningdek, u yirik madaniy markazlar sonining ko'payishi, G'arbiy Evropa, Vizantiya, Eron, Markaziy Osiyo, qadimgi Rossiya, Xitoy va Hindistonning ushbu davrning muhim madaniy markazlari sifatida paydo bo'lishi, jahon san'atining rivojlanishi uchun muhim asos, yodgorliklar san'ati, ibodatxonalar va uylarni bezatish, Evropada feodalizmning gullab-yashnashi san'ati (XII-XV asrlar), ya'ni "gotik" atamasi, uning leksik ma'nosi va konteksti muhokama qilinadi. O'rta asr me'morchiligida islom me'morchiligi (Yaqin Sharq, Qadimgi Osiyo va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan me'moriy uslub) jahon me'morchiligining la'nati sanaladi.Maqolada o'rta asrlarning musiqashunoslik rivojiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan me'moriy uslub) jahon me'morchiligining la'nati sanaladi. Islom me'morchiligiga masjidlar, madrasalar, maqbaralar, turli minoralar, bezaklar, naqshlar, sul va kufiy uslubidagi yozuvlar, shuningdek, rang-barang sirklar va, albatta, islom me'morchiligining noyob yodgorliklari, Barbados musiqa asbobi kiradi. Maqolada o'rta asrlarning musiqashunoslik rivojiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar**

O'rta asr, Feodalizm, shakllanish, rivojlanish, inqiroz, formatsiya, Sharq va G'arb mamlakatlari, Xitoy, Hindiston, Misr, Rim, Gretsiya, Messopotamiya, G'arbiy Yevropa, Vizantiya, Eron, O'rta Osiyo, Qadimgi Rus, me'morlik san'ati, nodir yodgorliklar.

**Аннотация**

Данная статья под названием "Искусство раннего Средневековья (IV-IX)" охватывает историю Средневековья, включая формирование, развитие и кризис феодализма. В ней также рассматривается рост числа крупных культурных центров, появление Западной Европы, Византии, Ирана, Центральной Азии, Древней России, Китая и Индии как важных культурных центров этого периода, важной основы для развития мирового искусства,

искусства памятников, украшения храмов и домов, искусства расцвета феодализма в Европе (XII-XV века), то есть обсуждается термин «готика», его лексическое значение и контекст. В средневековой архитектуре исламская архитектура (архитектурный стиль, широко распространенный на Ближнем Востоке, в Древней Азии и Центральной Азии) считается проклятием мировой архитектуры. Исламская архитектура включает мечети, медресе, мавзолеи, различные минареты, украшения, узоры, надписи в сульском и куфическом стилях, а также красочные цирки и, конечно же, редкие памятники исламской архитектуры, барбадосский музыкальный инструмент. В статье рассматривается вклад Средневековья в развитие музыкологии.

**Ключевые слова**

Средневековье, феодализм, формирование, развитие, кризис, формирование, страны Востока и Запада, Китай, Индия, Египет, Рим, Греция, Месопотамия, Западная Европа, Византия, Иран, Центральная Азия, Древняя Россия, архитектурное искусство, редкие памятники.

**Abstract**

This article entitled “The Art of the Early Middle Ages (IV-IX)” covers the history of the Middle Ages, including the formation, development and crisis of feudalism. It also examines the growth of the number of large cultural centers, the emergence of Western Europe, Byzantium, Iran, Central Asia, Ancient Russia, China and India as important cultural centers of this period, an important basis for the development of world art, the art of monuments, the decoration of temples and houses, the art of the heyday of feudalism in Europe (XII-XV centuries) In other words, the term "Gothic", its lexical meaning and context are being discussed. In medieval architecture, Islamic architecture (an architectural style widespread in the Middle East, Ancient Asia, and Central Asia) is considered the bane of world architecture. Islamic architecture includes mosques, madrassas, mausoleums, various minarets, decorations, patterns, inscriptions in the Arabic and Kufi styles, as well as colorful circuses and, of course, rare monuments of Islamic architecture, a Barbadian musical instrument. The article examines the contribution of the Middle Ages to the development of musicology.

**Keywords**

Middle Ages, feudalism, formation, development, crisis, formation, East and West countries, China, India, Egypt, Rome, Greece, Mesopotamia, Western Europe, Byzantium, Iran, Central Asia, Ancient Russia, architectural art, rare monuments.

O'rta asr tarixi feodalizmning shakllanishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi yillarini o'z ichiga oladi. Bu formatsiyaning davriy chegarasi turli mamlakatlarda (Sharq va G'arb mamlakatlari ko'zda tutiladi) turlicha davom etdi[1]. Jumladan, Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarda O'rta asr 476-yilgi Rim imperiyasining qulashidan to XVII asrning 40-yillarigacha, aniqrog'i, Yevropadagi birinchi burjua inqilobi - ingliz inqilobigacha bo'lgan davrni, aksincha, Sharq mamlakatlari, jumladan, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda III asrdan boshlanib, XIX asr boshlarigacha davom etgan davrni o'z ichiga oladi. Shu davrlarda mavjud bo'lgan san'at O'rta asr san'ati deyiladi. O'rta asr san'ati insoniyat san'ati taraqqiyotining yangi bosqichi bo'ldi. U ko'proq omma hayotiga singib bordi. Xalq, o'z navbatida, san'atning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. San'atda milliylik yaqqol sezila boshladi. Agar qadimgi dunyo tarixida, yirik madaniyat o'chog'lari Misr, Rim, Gretsiya, Messopotamiya bo'lgan bo'lsa, O'rta asrda esa bunday yirik madaniyat markazlarining soni ortdi. G'arbiy Yevropa, Vizantiya, Eron, O'rta Osiyo, Qadimgi Rus, Xitoy, Hindiston shu davrdagi muhim madaniyat o'chog'i, jahon san'ati taraqqiyotining muhim zamini bo'ldi. O'rta asr san'ati ko'p hollarda din bilan bog'liq holda rivojlandi. Din ideologlari esa asosiy buyurtmachi (zakazchik) bo'lib qoldilar. Shu boisdan san'atkorlar o'z-o'zidan din ideologiyasini targ'ib etuvchilarga aylandilar. Din ta'siri shu davrda san'atning shakli va mazmunida o'z ifodasini topdi. Buni xristian dini tarqalgan yerlarda cherkovlar, islom dini mamlakatlarida masjidlar, buddizm mavjud bo'lgan joylarda Budda va uning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar, ibodatxonalar paydo bo'lishi, ularning konstruktiv tuzilishi va xarakterida ko'rish mumkin. Albatta, O'rta asr san'atida faqat din ideologiyasidan boshqa g'oya yo'q, deyish noto'g'ri bo'lardi. Hayot go'zalligini tarannum etuvchi, tabiat latofatini aks ettiruvchi asarlar yo'q emasdi. Hayot fantaziyasi bilan yaratilgan ertak va dostonlarda, tasvir va haykallarda ularning olijanoblik, insoniylik, ma'naviy poklik, tabiat go'zalligiga muhabbat tuyg'ulari, o'y-xayollar, orzu-istaklari o'z ifodasini topdi. O'rta asr san'atida me'morlik san'ati yetakchi o'rinni egalladi. San'atning qolgan turlari esa (rangtasvir, haykaltaroshlik) u bilan bog'liq holda rivoj topdi.

O'rta asr me'morlik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari bizgacha saqlanib qolgan. Bu yodgorliklarda, ayniqsa, monumetal me'morlik san'ati O'rta asr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini bilishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy falsafiy qarashlarini aks ettiribgina qolmay, balki shu bilan birga, inson aql-zakovatining qudratini ko'rsatdi.

Bu davrda qurilgan Yevropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli masjidlar o'rta asr tafakkurining mahsuli, insoniyat tarixining haykali

[1] http://uz.denemetr.com/docs/768/index-71091-1.html?page=2

AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN
ISSN: 2996-511X (online) | ResearchBib (IF) = 9.512 IMPACT FACTOR
Volume-4| Issue-5| 2025 Published: |30-05-2026|

sifatida hanuzgacha kishilar qalbini lo‘lqinlantiradi.) Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta’zim etishga da’vat etadi.

X-XII asrdagi Yevropa san’ati odatda roman san’ati deb yuritiladi. “Roman” iborasi shartli bo‘lib, lotincha rimniki, degan so‘zdan olingan. Bu san’at namunalarini Fransiya, Germaniya, Italiya va G‘arbiy Yevropaning boshqa joylarida uchratish mumkin. Roman uslubidagi binolar o‘zining vazminligi, bo‘yini birmuncha past qilib ishlanganligi, devorlarning qalinligi, ishlatilgan ustunlarning



yo‘g‘on va birmuncha dag‘alligi, darvoza va ayniqsa, derazalarining ensizligi bilan boshqa uslubda ishlangan binolardan ajralib turadi. Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarning tashqi va ichki tomonlari (devorlari) tasviriy san’at asarlari (haykaltaroshlik, rassomlik) bilan bezatilgan. Roman ibodatxonalarining ichki tomonini (interyer) bezashda devoriy surat va vitrajlar keng qo‘llanilgan. Buni Fransiyaning Puatedagi NotrDam Grand ibodatxonasida ham ko‘rish mumkin. Bu ibodatxona ko‘rinish jihatidan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan. Uning kichik, tor darchalari bu devorlar qalinligini yanada bo‘rttirib, vazminligini oshiradi. Bu ibodatxona uch nef (zal)dan iborat. O‘rtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan biroz baland, u yerdagi mavjud darchalar ichkariga nur tushishiga xizmat qiladi. Bino devorlari haykaltaroshlik asarlari, turli me’morchilik dekorativ elementlari bilan bezatilgan. Masalan, yarim kolonna, yarim aylana shaklidagi ark va hokazolar. Bular binoning jiddiy ko‘rinishiga latofat kiritadi.

Yevropada feodalizmning gullagan (XII-XV asrlar) davridagi san’atni gotika san’ati deb yuritiladi. «Gotika» iborasi ham shartli olingan. Uning lug‘aviy ma’nosi italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, «gotlarniki» degan mazmunni bildiradi (Gotlar german qabilalaridan biri). Bu ibora Uyg‘onish davrida kiritilgan bo‘lib, san’atda got qabilalari san’ati ta’siri kuchliroq bo‘lganligini bildiradi. Gotika san’ati bevosita roman san’ati an’analarini rivojlantirib, uni yangi bosqichga olib chiqdi. Gotika san’ati ham cherkov g‘oyalarini shartli belgi va simvolik obrazlarda talqin etishga harakat qildi. Shu bilan birga, bu



san’at bag‘rida yangi tendensiyalar - hayotiy tabiat shakllariga qiziqish, inson ruhiy

olamini ochishga intilish kuchaya bordi. Gotika san’atining xarakterli tomonlari me’morchilikda yaqqol namoyon bo‘ladi. U roman me’morchiligidan o‘zining ko‘rkamligi va yengilligi bilan ajralib turadi. Gotika me’morchiligida hamma dekorativ elementlar ochiqlikka, falakka intilayotgandek qilib ishlangan bo‘lib, bu davr kishilarining ozodlikka, yorug‘likka, hayotga intilishlarini belgilaydi.

Me’morchilik binosidagi shu g‘oyalar arklarda ham ko‘zga tashlanadi. Ibodatxonalarning kiraverishida atirgulga o‘xshash qilib ishlangan vitrajlar binoga alohida go‘zallik baxsh etadi. Gotika binolarining devorlariga, peshtoqlariga ishlangan tasvirlarda realistik tendensiyalar kuchayadi. Gotika uslubida qurilgan binolar baland bo‘lib, uning ichki qismidagi nafis ustun binoning jozibasiga yanada joziba qo‘shadi. Keng va baland rangdor zinali darvozalar, ulug‘vor eshiklar binoni shohona qilib ko‘rsatadi. Gotika me’morligi namunalari hozirgi kunda ham Fransiya, Germaniya, Angliya, Polsha, Chexiyada o‘zining qaytarilmas go‘zalligi bilan kishini xayol dunyosiga boshlaydi. O‘rta asr me’morligi san’ati to‘g‘risida gapirilganda Vizantiya me’morligi san’atini (uning nodir yodgorligidan biri Konstantinopoldagi avliyo Sofiya ibodatxonasi), Buddizm me’morlik san’atini (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan) eslamay bo‘lmaydi. Bular ham o‘zining qaytarilmas jozibasi, g‘oyaviy mazmuni bilan kishiga ma’naviy qoniqish baxsh etadi, insoniyat tafakkuri to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishga yordam beradi.

O‘rta asr me’morlik san’atida islom me’morligi ham (Yaqin Sharq, Old Osiyo,



O‘rta Osiyoda tarqalgan me’morlik uslubi) jahon me’morlik lan’atida muhim ahamiyat kasb etdi. Islom me’morligida ko‘rilgan inasjid, madrasa, maqbara, turli minoralar, bezaklar, naqshlar, suls va kufiy uslubida yozilgan yozuvlar hamda rang-barang sirkor parchalar bilan bezatilib, ular qiyofasining serhasham va nazokatini oshirgan. Binolardagi gumbaz va minoralar esa uning yanada dabdabali bo‘lishiga xizmat qilgan. Samarqanddagi Bibi-Xonim va Shohi Zinda ansambli, Ispaniyadagi Algambra masjidi, Hindiston, Afg‘oniston, Arab mamlakatlaridagi qator yodgorliklar islom me’morligi san’atining nodir yodgorliklari hisoblanadi.



O‘rta asrda dekorativ-amaliy san’at ayniqsa kamol topdi. Noma’lum xalq ustalari yaratgan rang-barang buyumlar hanuzgacha o‘zining nafosat bilan tanlangan ranglar tovlanishi-yu, chiziqlar jozibasi, ishlatilgan material imkoniyatlarining emotsional ta’sir kuchidan o‘rinli va mohirona foydalanilgani bilan kishi diqqatini o‘ziga tortadi. O‘rta asrlarda tasviriy san’atda ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu davrga kelib uning tur va janrlari kengaydi. Inson ruhiy olamini ochib berishga intilish ko‘pgina san’atkorlarni o‘ziga tortib, ifoda vositalarining ham yangilanishiga, yanada ta’sirchan bo‘lishiga olib keldi. San’atkorlar san’at orqali katta fikrlarni bayon etishga intilib, turli xildagi ramziy obrazlarga murojaat qildilar, allegoriyalardan foydalandilar. O‘rta asr san’atining xarakterli tomonlaridan biri turh’ xildagi shartli belgi va obrazlarga murojaat qilinishi. Qadimgi dunyo san’atidan ilgarilab ketdi. O‘rta asr rassomi (haykaltaroshi ham) tasvir ishlaganda uni real voqelikka o‘xshatishni emas, balki shu tasvir orqali biron-bir fikrni ilgari surishga harakat qildi.

*Eramizdan oldingi IV-VII asrlardagi musiqa madaniyat* - Eramizning IV asridan boshlab O‘rta Osiyoda quldorchilik asta-sekin feodal tuzum bilan almashdi. O‘rta Osiyoda yashagan turklar o‘z davlatining so‘nggi qismini – qo‘qonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo‘shilib yashash jarayoni boshlanadi. IV -VII asrlargacha bo‘lgan davr madaniyat va san’at turlarining, jumladan musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi. Tasviriy san’atning ko‘p sonli obidalari mazkur davrning qurollari va musiqa ishtirokidagi urf-odatlari to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Qadimgi Panjikentdan topilgan yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nog‘ora va doira jo‘rligida raqsli sahna, sopol idishda dafn marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalantirilgan yorqin tasvir uchraydi. Kumush laganga ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan. Mahalliy aholining musiqa hayotinint ba’zi elementlarini meros qilib olganlar. Keyinchalik “Kitobi Ko‘rqut” sikliga kirgan ko‘pgina epik turk afsonalari O‘rta Osiyo xalqlarida eposning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, xalq ijodi va mahalliy professional an’ana kelajakda og‘zaki an’anadagi yirik professional asarlar tug‘ilishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Ayrim keng tarqalgan maqom kuy tuzilmalarining turkcha nomi, masalan, “Avji turk” deb atalishi ham bejiz emas. Ehtimol, vafot etgan kishining jasadi tepasida turib maxsus aytuvchilar tomonidan deklamatsion xarakterda marsiya aytib yig‘lash odati qadimgi turk qabilalaridan qolgandir. Ehtimol, o‘zbek baxshilari turk xalq xonanda-azonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublaridan foydalangandir, zeroki buni o‘zbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzilishida ko‘rish mumkin.

Eramizning IV asridan boshlab Markaziy Osiyoda quldorchilik asta-sekin feodal tuzum bilan almashdi. Markaziy Osiyoda yashagan turklar oʻz davlatining soʻnggi qismini - qoʻqonlik deb atay boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qoʻshilib yashash jarayoni boshlanadi. IV-VII asrlargacha boʻlgan davr madaniyat va san'at turlarining, jumladan, musiqaning yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi.

Butun Sharqqa mashhur boʻlgan va keyinchalik Sharq adabiyoti mumtoz asarlarida tasvirlangan Markaziy Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, oʻnlab kuylar ijodkori Borbad (yoki Faxshobod)ning nomi mashhur boʻldi. Marv (Turkmanistondagi hozirgi Mari) shahrida istiqomat qilgan Borbad VII asr boshlarida Eron sosoniylari sulolasidan boʻlgan Xisrav saroyida xizmat qildi. Tarixchilar bergan ma'lumotlardan ma'lumki, Borbad madhiya va tarixiy qoʻshiqlar, harbiy gʻalabalar toʻgʻrisida qoʻshiqlar ijod etgan. Ozarbayjon adabiyotining klassigi Nizomiy "Xisrav va Shirin" dostonida Borbadning san'at shinavandalariga favqulodda kuchli ta'siri toʻgʻrisida yozgan. Tasviriy san'atning koʻp sonli obidalari mazkur davming qurollari va musiqa ishtirokidagi urf-odatlari toʻgʻrisida ma'lumotlar beradi. Qadimgi Panjikentdan topilgan yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nogʻora va doira joʻrligida raqsli sahna, spool idishda dafh marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalantirilgan yorqin tasvir uchraydi. Kumush laganga ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan. Mahalliy aholi musiqa hayotining ba'zi elementlarini meros qilib olganlar. Keyinchalik "Kitobi Koʻrqut" sikliga kirgan koʻpgina epic turk afsonalari Markaziy Osiyo xalqlarida eposning shakllanishiga ta'sir koʻrsatdi.

Shunday qilib, xalq ijodi va mahalliy ustozona an'ana kelajakda ogʻzaki an'anadagi yirik professional asarlar tugʻilishi uchun asos boʻlib xizmat qildi.

Ayrim keng tarqalgan maqom kuy tuzilmalarining turkcha, masalan, «Avji turk» deb atalishi ham bejiz emas. Ehtimol, vafot etgan kishining jasadi tepasida turib maxsus aytuvchilar tomonidan deklamatsion xarakterda marsiya aytib yigʻlash odati qadimgi turk qabilalaridan qolgandir. Ehtimol, oʻzbek baxshilari turk xalq xonandaazonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublaridan foydalangandir, zeroki buni oʻzbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzilishida koʻrish mumkin. Shunday qilib, VII-VIII asrlarga kelib mahalliy musiqa an'analari aniq boʻlib qoldi, xalq va professional musiqaning ogʻzaki an'analari shakli vujudga keladi.

Sosoniylar davri musiqa san'ati musiqa madaniyatiga kata oʻzgarishlar olib keldi. Ijrochilar ham ijod, ham oʻziga xos murakkab "kasbiy" deb ataluvchi yoʻnalishga xos burilish yasadi. Ya'ni, kasbiy musiqa an'analari ijod jarayoniga

kiritildi. Natijada, mohir va bilimli san'atkorlar, o'z kasbining ustalari, mohir sozandalar ajralib chiqdilar. Shu davming mohir musiqachilaridan biz Romtin, Bamshod, Noqissa, Ozodvor, Sarkash va Borbad kabilami misol qilishimiz mukin. Ular orasida bo'lgan ijrochilik raqobati yoki ijodiy musobaqa negizida juda ko'p musiqiy namunalar yaratilgan. Musiqaning qadimiy an'analarida "lahn", "parda", "doston", "roh", "xusravoniy" kabi nomlar bilan ataladigan musiqiy namunalar shakllari mavjud bo'lgan. Bu asarlar ana shunday sozandalaming ijodlarida shakllangan. Hattoki ilk bor mumtoz musiqaning namunalari ham shu davrga kelib shakllana boshlangan.

Ushbu davming musiqa san'ati namunalari misolida zabardast sozanda va bastakor Borbadning ijodi keng yoritilgan. Uning ijodiy namunalari nomlari bizning davrimizgacha saqlanib kelingan.

Bu xususda musiqashunos olim O. Matyoqubov o'zining "Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish" kitobida shunday yozadi: "Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining arab istilosidan oldingi kasbiy musiqasida mashhur bo'lganlardan biri Xusravoniylar (shohona, ya'ni eng mukammal musiqa turi) turkumidir. Bu turkumga "Ganji arus" ("Kelinchak xazinasi"), "Ganji Faridun" ("Faridun xazinasi"), "Kini Siyovush" ("Siyovush qasosi") va boshqa yo'llar kirgan. Har bir Xusravoniy ikki qismdan va o'z navbatida kichik bo'limlardan tuzilganligi hamda bu kuylar ovoz va cholg'ularda ijro etilganligi qayd qilinadi.

Qadimiy musiqaning yana bir mashhur turlaridan biri lahnlar turkumidir. Bu kuylaming nomlari va tartibi manbalarda turlicha keltiriladi deb, Borbad nomi bilan bog'liq 30 ta lahnlaming nomlarini keltiradilar. Shuni ta'kidlash joizki, Borbad Marviy nafaqat eron musiqasi asoschisi, balki o'zbek-tojik mumtoz musiqasining bobokaloni hamdir. Tarixiy manbalarda musiqiy cholg'ular xususida ham alohida ma'lumotlar keltirilgan. Ud, rud, rubob, tor, barbat, tanbur, chang, nuzxa, mug'na, shohrud, qonun, nay, mizmor, dunay va sumay kabi cholg'ulari amaliyotda mashhur bo'lganligi borasidagi fikrlar manbalarda zikr etiladi. Bularning hammasi sosoniylar davridagi musiqa madaniyatining ma'lum darajada rivoj topganidan va bu jarayon o'z oqimida va shu o'lkalarga xos tarzda davom etganligini ko'rsatadi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Popular music. Larri Star & Christopher Waterman. Oxford Universite Press. Inc. 2007.

2. Avazbek Mallaboyev. Yakkaxon xonandalik. III-jild. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2011

3. Avazbek Mallaboyev. Yakkaxon xonandalik. II-jild. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009
4. Avazbek Maxmudov. Andijon san'ati fidoyilari. Andijon-2017
5. Aynisa Yuldasheva. Vokal. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020
6. Azamat Sharipov. Vokal. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019
7. Azizbek Haydarov. Vokal. O'quv qo'llanma. Qo'qon – 2019
8. Begmatov S. Hofizlik san'ati. T:-2007
9. Cairns, David. "Mozart and His Operas. Berkeley", CA: 2006
10. Гомбрих Э. "История искусства". — М.: Искусство XXI век, 2017.
11. Mukhamedova, M. (2024). Analysis of Museum Construction and Development of Museum Tourism in Uzbekistan (Early Twentieth Century). *European Journal of Arts*, (1), 6-14.
12. MUXAMEDOVA, M. (2023). MUZEY FONDLARINI ZAMONAVIY HUJJATLASHTIRISH VA ELEKTRON ARXIVLASH MASALALARI. *Scientific Journal of Mathematical Knowledge and Applied Research*, *1*(01), 236-240.
13. Mukhamedova, M. S. (2019). THE MAIN FUNCTIONS OF HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE SITES IN UZBEKISTAN, FACTORS OF EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF PROPAGATION AND RESEARCH PRINCIPLES. *Theoretical & Applied Science*, (6), 370-373.
14. Mukhamedova, M. S. (2019). ОСУЩЕСТВЛЕННЫЕ РАБОТЫ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ ПО ОБЪЕКТАМ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ СОЗДАННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ В НАЧАЛЕ XX В. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-6), 5-10.
15. Мухамедова, М. С. (2017). ПРОЦЕССЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТОВ ОБЪЕКТОВ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА). *Theoretical & Applied Science*, (12), 60-63.
16. Мухамедова, М. С. (2015). ИЗ ИСТОРИИ МУЗЕЙНЫХ ОБЪЕКТОВ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА. *Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии*, (11-1), 69-73.
17. Sabirovna, M. M. Innovative Solutions for Lighting Online Projects in the Development of Cultural Tourism in Russia (Based on the Analysis of Foreign and Domestic Museums). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(9), 246-251.
18. Sabirovna, M. M. XX ASR BOSHLARIDA O 'ZBEKISTON MUZEYLARINING RIVOJLANISH JARAYONLARINING O 'RGANILISHI. *Muqimova D. Sh. Ilmiy uslubdagi matnlarni tushunishda til vositalarining psixolingvistik*, 46.

19. Mukhamedova, M. S., Kasimova, S. A., Khasanova, F. R., Ganieva, C. X., & Jabborova, L. B. Advancing Ties: Uzbekistan's Relationship Development with UNESCO.

20. Mukhamedova, M., Kasimova, S., Khasanova, F., Ganieva, C., & Jabborova, L. Historical Development of Cooperation Relations Between the International Organization UNESCO and Uzbekistan.

21. Muxamedova, M., Jumayev, J., Matmuratov, K., Kabilov, F., & Giyasov, S. Implementation of the Museum Shop in Museums of Uzbekistan.

22. Abdinabiyevna, S. M. (2025). XONLIKLARNING TARQALISHI NATIJASIDA O ‘ZBEK MUSIQA MADANIYATI MAHALLIY XUSUSIYATLARNI QABUL QILA BOSHLASHI VA SAN’ATDAGI TUB BURILISHLAR. *CANADA-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 20-25.

23. Abdinabiyevna, S. M. (2025). THE FORMATION AND DEVELOPMENTAL STAGES OF UZBEK TRADITIONAL PERFORMANCE AND VOCAL ART. *World Bulletin of Education and Learning*, *1*(02), 400-403.

24. Abdujabbarovna, S. M. (2025). XALQIMIZ VA UNING NAMOYANDALARI YARATGAN MA’NAVIY BOYLIKLARIMIZ BUTUN O ‘ZBEK XALQI MADANIY MEROSI, QADRIYATLARINING TARKIBIY QISMI. *USA-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 30-34.

25. Muhabbat, S. (2024). CULMINATIONS AND NAMUDS IN SHASHMAKOM: ZEBO PARI AND AVJ-I TURK. *European Journal of Arts*, (3), 53-55.

26. Muhabbat, S. (2022). MAHMUDJON TOJIBOEV BASTALAGAN TURKUM ASARLARGA BIR NAZAR. *Oriental Art and Culture*, *3*(4), 848-857.

27. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO’LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(10-2), 344-352.

28. Bozorovich, M. J., & Vaxobova, K. M. (2021). SHASHMAQOM SARAXBOR SHO’BALARI. *Oriental Art and Culture*, (7), 62-69.

29. Karimova, M., Achildiyeva, M., Ikromova, F., & Xaydarova, O. (2021). Use from pedagogical technologies in music lessons. *European scholar journal*, *2*(4), 460-463.

30. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(10).

31. Bahodir o‘g‘li, N. B. (2025). YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN’ATIDA MILLIY QO ‘SHIQCHILIKDA OVOZ DIAPAZONINING AHAMIYATI. *SPAIN-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(2), 7-11.

32. Doniyor, N. (2025). XALQ VA PROFESSIONAL SAN’AT TURLARI O’ZBEK MUSIQA MADANIYATI MISOLIDA. *FRANCE-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 14-17.

33. Islomjon o‘g, G. A. A. (2025). YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA’NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN’ATINING O ‘RNI SHARQ VA G’ARB XALQLARI MUSIQASI. *RUSSIA-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 13-16.

34. Islomjon o‘g, G. A. A. (2026). FARG ‘ONA VODIYSI MAQOM IJROCHILIGIDA KATTA ASHULANING O ‘RNI. *SHOKH LIBRARY*, *1*(1).

35. Komiljonovich, M. F. (2025). MAQOMNI YOSHLARGA ORGATISH BORASIDA MULOHAZALAR. *FRANCE-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 25-29.

36. Kamilldjanovich, M. F. (2025). SHASHMAQOM AND ITS MODERN INTERPRETATIONS: ANALYTICAL PERSPECTIVES. *World Bulletin of Education and Learning*, *1*(02), 368-376.

37. Odiljon o‘g‘li, I. A. (2025). SHASHMAQOMDAGI AVJLAR VA “ZEBO PARI AVJ” NING YARALISHI. *SPAIN-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(2), 24-28.

38. Pirmatova, N. (2024). FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI. *Modern Science and Research*, *3*(12), 1294-1296.

39. Pirmatova, N. FEATURES OF THE VOCAL VOICE IN CHILDHOOD AND ADOLESCENCE. *The European Journal of Arts*, 97.

40. Pirmatova, N. (2026, March). THE INFLUENCE OF NATIONAL MUSIC ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH. In *International Congress on Economics, Management and Business Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 171-175).

41. Qobiljon, A. (2024). USING HANGS OF ASHULA AS VOICE EXERCISES. *European Journal of Arts*, (3), 45-49.

42. Tolibjonovich, S. M. M. (2025). MAQOM XONANDALIGIDA AMALIYOTNING O ‘RNI VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR. *CANADA-*

*SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 26-30.

43. Ulmasovich, R. U. (2025). O'zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, *1*(3), 8-13.

44. Расулов, У. У. (2020). Танбур и его роль в развитии традиционной узбекской музыки. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 99-101.

45. Rasulov, U. U. (2024). Yangi O 'zbekiston taraqqiyotida maqom san'atining tutgan o 'rni. *Inter education & global study*, (4), 403-411.

46. Voisov, M. (2023). XONANDALIK AMALIYOTIDA CHOLG 'U SOZINI O 'RGANISHNING AHAMIYATI XUSUSIDA. *Oriental Art and Culture*, *4*(1), 140-145.

47. Воисов, М. Э. (2020). ВАЖНОСТЬ И РОЛЬ ТЕХНИКИ ИСПОЛНЕНИЯ ТУРГУНА АЛИМАТОВА В ТРАДИЦИОННОМ ИСПОЛНЕНИИ ТАНБУР. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (155)), 79-81.

48. Ваисов, М. Э. (2024). ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛНЕНИЯ И ОБУЧЕНИЯ МЕЛОДИИ АРИ БОБОХОНОВА "ХУРРАМ" НА ИНСТРУМЕНТЕ РУБАБ. *Проблемы современной науки и образования*, (8 (195)), 45-47.

49. Voisov, M. (2023). SHASHMAQOM TALQIN SHO 'BALARINING IJROCHILIK XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, *4*(1), 524-528.

50. O'ktamovich, X. A. (2025). YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA CHOLG 'USI, UD SOZINING ORGONOLOGIYASI XUSUSIDA. *GERMANY-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 31-35.

51. Azamat, O. (2023). AN'ANAVIY UD IJROCHILIGINING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI. *Oriental Art and Culture*, *4*(5), 42-45.

52. Azamat, O. (2023). UD SOZINING TUZILISHI VA ORGONOLOGIYASI. *Oriental Art and Culture*, *4*(1), 595-599.

53. Yo'lchiyeva, M. (2018). An'anaviy yakka xonandalik. *O'quv qo'llanma Toshkent*.

54. Yo'lchieva, M. (2025). YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O 'RNI SHARQ VA G'ARB MUSIQIY ALOQALAR. *FRANCE-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, *1*(3), 18-24.

55. Abduvaliyevna, M. Y. (2025). THE YUNUS RAJABIY MAQOM ENSEMBLE: ARTISTIC HERITAGE, PERFORMANCE TRADITIONS AND CULTURAL SIGNIFICANCE. *World Bulletin of Education and Learning*, *1*(02), 377-388.

56. Zaidovich, A. Q. (2025). "OVOZNI TO 'G 'RI YO 'LGA QO 'YISH" DARSLARIDA XONANDA TALABALAR BILAN MUSIQIY ASARLARDAGI TALAFFUZ VA URG 'ULAR USTIDA ISHLASH MUAMMOLARI HAMDA ULARNI BARTARAF QILISH YO 'LLARI. *Great britain-scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, *1*(3), 12-23.

57. Ayubov, Q. Z. (2023). YAKKAXON IJROCHILIKDA OVOZ MASHQLARINING O 'RNI. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 72-77.